



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'ZBEKISTON BANKLARIDA TA'LIM KREDITI

Narzullayeva Zuhra Abdullo qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Samarqand filiali Bank ishi va auditni ta'limga yo'nalishi,

2-kurs talabasi; +998-99-095-46-71,

Ilmiy rahbar:

"Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya" kafedrasini

dotsenti v.b., i.f.f.d.

Togayev Salim Sobirovich

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida ta'limga kreditining joriy etilishi-yurtimizda ta'limga va tarbiya olayotgan, yurtimiz rivoji uchun shaxsiy yordamini ko'rsatish va kelajakda o'zining, hamda, yurtimiz manfaati uchun o'z hissasini qo'shamoqchi bo'lgan talaba yoshlarga kontrakt to'lovlari to'lashlari uchun imkoniyat hisoblanadi. Ta'limga krediti yillik 14 foizdan (Xotin-qizlarga foizsiz) ajratiladi.

Kalit So'zlar: kontrakt bahosi, ta'limga krediti, davlat byudjeti, kredit imtiyozlari, bank daromadi, kredit tashkilotlari.

Barchamizga ma'lumki, o'tgan davrlarda barcha banklarda yuridik va jismoniy shaxslar uchun kredit berish joriy etilgan edi. Bu jarayon yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Kreditlarni berish bo'yicha bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar, yangi qonunlarning qabul qilinganligini-yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning tobora ko'payib borayotganligidan bilsa bo'ladi. Chunki, yuridik hamda jismoniy shaxslar banklardan olayotgan kreditlari orqali, katta miqdorda faoliyat yurita oladigan xususiy korxona va tashkilotlarni ko'paytirib, ko'p miqdorda daromad olishadi. Yana shunday imkoniyatlarni ko'paytirish maqsadida, talaba yoshlar uchun kredit berish ham joriy etish ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasida ta'limga kreditining joriy etilishi-yurtimizda ta'limga va tarbiya olayotgan talaba yoshlar uchun katta imkoniyat hisoblanadi. 30-iyul kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta'limga muassasalarida ta'limga olish imkoniyatlarini kengaytirishga oid qarorni imzoladi. Unga ko'ra, tijorat banklari Markaziy bankning asosiy stavkasi (14 foiz)da ta'limga krediti ajratadi. Kreditni rasmiylashtirishda talabaning doimiy daromad manbayiga ega oila a'zolari birgalikdagi qarz oluvchi sifatida qatnashishishga ruxsat beriladi. Ta'limga kreditini olishda yuzaga keladigan muammolar bo'yicha har bir bankdan kerakli midorda mutaxassislar biriktirilgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"



O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan barcha oliy, o'rta maxsus va professional ta'limgizlari tashkilotlarida va qo'shma ta'limgizlari bo'yicha bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'limgizlari shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga.

14%

Ta'limgiz krediti yillik 14 foizdan (Xotin-qizlarga foizsiz) ajratiladi, kreditning asosiy qarzini kredit oluvchi tomonidan ta'limgizlari tashkilotida ta'limgizlari tegishli turi bo'yicha rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan bosholab 7 yil davomida qaytariladi.

1-
chizma.Ta'limgizlari



"Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalarining farzandlariga ajratiladigan ta'limgiz krediti bo'yicha garov va kafillik talab etilmaydi.

krediti
imtiyozlari.

Ta'limgiz kreditini olishda yuzaga keladigan muammolar bo'yicha har bir bankdan kerakli midorda mutaxassislar biriktirilgan.



01



ONLAYN ARIZA
QOLDIRISH

03



HUJJATLARNI
RASMIYLASHTIRISH

02



ARIZANI KO'RIB
CHIQISH

04



KREDIT AJRATISH

2-rasm.Kredit olish jarayoni.

Hukumat qarori bilan, xotin-qizlarga tijorat banklari tomonidan foizsiz ta'lim krediti ajratish tartibi joriy qilingandi.Bunda, talaba va bank o'rtaida ta'lim krediti ajratish to'g'risida shartnoma imzolanadi hamda kredit bo'yicha foiz stavkalari to'liq davlat byudjetidan qoplanadi.

Ta'lim kreditini berish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ta'lim kreditini rasmiylashtirgan talabalar o'qish muddati tugagandan so'ng,yetinchi oydan boshlab 7 yil davomida rasmiylashtirilgan kreditning asosiy qarz qismini qaytara boshlaydi.
- kreditni to'lash bo'yicha umumiy tartib-qoidaga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Imtiyozli ta'lim kreditini rasmiylashtirish uchun quyidagilar zarur:

- imtiyozli ta'lim krediti olish to'g'risidagi tijorat bankiga ariza;
- kredit oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjati;
- ta'lim muassasasining to'lov-kontrakt shartnomasi.

Quyidagi 12 ta tijorat banki talabalarga foizsiz ta'lim kreditini ajratish bo'yicha Moliya vazirligi bilan bitim tuzgan:

1. Mikrokredit bank;
2. Asaka bank;
3. Agrobank;
4. Xalq banki;
5. Ipoteka bank;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

6. Qishloq qurilish bank;
7. Turon bank;
8. Orient finans bank;
9. Milliy bank;
10. O'zsanoatqurilishbank;
11. Hamkorbank;
12. Aloqa bank.

Kredit oluvchining tijorat bankidan olgan ta'lif krediti bo'yicha muddati o'tgan foiz qarzdorligi mavjud bo'lsa yoki muntazam ravishda to'lov muddatini o'tkazib kelgan bo'lsa, tijorat banki ta'lif krediti shartnomasida belgilangan tartibda kredit oluvchiga to'lov-kontraktning navbatdagi qismi bo'yicha yoki keyingi yillar uchun ta'lif kreditini ajratishni rad etishi mumkin.

Ta'lif kreditlari bo'yicha tijorat banklarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun Moliya vazirligi huzurida Ta'lif kreditini moliyalashtirish jamg'armasi tashkil etiladi. Jamg'armaga Davlat byudjetidan 2021 yilda kamida 1 trln so'm, keyingi yillarda haqiqiy talabdan kelib chiqib mablag'lar ajratiladi. Ta'lif kreditini berishda bank daromadi muhim ahamiyat kasb etadi. Bank daromadidan kelib chiqqan holda, miqdoriy kreditlarni joriy etadi. Jamg'arma mablag'lar hisobiga tijorat banklarining so'rovlariga asosan ularga Markaziy bankning asosiy stavkasida ta'lif krediti ajratish uchun mazkur stavkadan 4 foiz bandga past bo'lgan stavkada resurslar ajratiladi. Markaziy Bankning asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, resurs mablag'lar va ta'lif krediti bo'yicha foiz stavkasi mutanosib ravishda pasaytiriladi, oshirilgan taqdirda esa o'zgarishsiz qoladi.

Faqat bu sohada emas, yana boshqa sohalarda ham boshqa turdag'i kreditlarni joriy etish, iqtisodiy sohaning rivojlanishiga sababchi bo'ladi deb o'ylayman. Chunki bu juda katta imkoniyat hisoblanadi. Keyingi rivojlanish davrida bunday yangiliklarni ko'rishimiz mumkin. Buning sababi esa, bank sohasida har yili yangidan yangi qonunlar ishlab chiqib joriy etilmoqda. Masalan, ta'lif krediti ham shu tariqa joriy etilgan edi. Bunday yo'nalishdagi qonunlar qabul qilinganidan so'ng, ko'zlangan natijani berishi ham kerakligi hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://xb.uz/uz/page/physical>
2. <https://xb.uz/uz/page/physical>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/30/credits/>
4. <https://tashabbus.org/>
5. <https://cbu.uz/>
6. <https://lex.uz/docs/5586538>